

TURK TILINI O'ZBEK AUDITORIYASIGA O'RGATISHDA QIYOSIY YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

Karimova Zulayho Shuhrat qizi

Annotatsiya. Mazkur tezisda turk tilini o'zbek auditoriyasiga o'rgatishda qiyosiy yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Qiyosiy metodning lingvistik asoslari, turk va o'zbek tillarining fonetik, leksik va grammatik jihatlarini taqqoslab o'rganilgan. Shuningdek, qiyosiy yondashuvni dars jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarda tezroq o'zlashtirish, xatolarni kamaytirish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qiyosiy metod turk tilini o'zbek auditoriyasiga samarali tarzda o'rgatishda muhim omil bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga, shuningdek, ikki xalq o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: turk tili, o'zbek auditoriyasi, qiyosiy yondashuv, til o'rgatish metodikasi, motivatsiya, samaradorlik.

Annotation. This thesis examines the theoretical and practical aspects of the comparative approach in teaching Turkish to the Uzbek audience. The linguistic foundations of the comparative method, as well as the phonetic, lexical, and grammatical features of Turkish and Uzbek, are analyzed. The study highlights how the application of the comparative approach in the learning process helps students acquire knowledge more quickly, reduce errors, increase motivation, and strengthen learning outcomes. The findings demonstrate that the comparative method is an effective tool in teaching Turkish to Uzbek learners, enhancing the quality of education and reinforcing cultural ties between the two nations.

Keywords: Turkish language, Uzbek audience, comparative approach, language teaching methodology, motivation, effectiveness.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются теоретические и практические аспекты использования сравнительного подхода при обучении турецкому языку узбекскую аудиторию. Анализируются лингвистические основы сравнительного метода, а также фонетические, лексические и грамматические особенности турецкого и узбекского языков. В работе показано, что применение сравнительного подхода в учебном процессе способствует более быстрому усвоению материала учащимися, снижению количества ошибок, повышению мотивации и закреплению знаний. Результаты исследования показывают, что сравнительный метод является эффективным инструментом в обучении турецкому языку узбекских студентов, способствует повышению качества образования и укреплению культурной близости между двумя народами.

Ключевые слова: турецкий язык, узбекская аудитория, сравнительный подход, методика преподавания языков, мотивация, эффективность.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda xorijiy tillarni o'rganish shaxsiy taraqqiyot, kasbiy faoliyat hamda ilmiy izlanishlar uchun zaruriy omilga aylanmoqda. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi esa turk tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan turk va o'zbek tillari o'rtasidagi genealogik yaqinlik til o'qitish jarayonida qiyosiy yondashuvni qo'llash imkoniyatini beradi.

Qiyosiy yondashuv metodikasi xorijiy til o'rganishda ona tili bilan o'xshash va farqli jihatlarni taqqoslashga asoslanadi. Bu usul o'quvchilarga yangi tilni tezroq va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Mazkur tezisda qiyosiy yondashuvning nazariy asoslari, amaliy qo'llanishi hamda afzalliklari ilmiy tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda qiyosiy tipologiya muhim o'rin tutadi. U ikki yoki undan ortiq tillarning fonetik, leksik va grammatik tizimlarini o'zaro taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi.

O'zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani sababli ular orasida ko'plab umumiyliklar mavjud: fonetik tizimda unli va undoshlarning mosligi, grammatikada egalik qo'shimchalari, zamon kategoriyalari, so'z tartibi kabi jihatlari. Shu bilan birga, ayrim fonetik farqlar (masalan, turk tilidagi ü va ö unilari), ba'zi grammatik konstruksiyalar va leksik tafovutlar ham mavjud.

Qiyosiy yondashuvning nazariy asosi shundan iboratki, o'quvchi yangi tilni o'rganishda mavjud bilimlariga tayangan holda farqlarni ongli ravishda angelaydi va tezroq o'zlashtiradi.

O'qitish jarayonida qiyosiy metoddan foydalanish turli bosqichlarda samarali natija beradi.

Grammatika bo'yicha:

- O'zbek tilidagi zamon kategoriyalari (hozirgi, o'tgan, kelasi) turk tilidagi shimdiki zaman, ge'chmi' sh zaman, ge'lecek zaman shakllariga qiyosiy tarzda taqqoslanadi.
- Egalik qo'shimchalari: kitobim – kitabım, kitobingiz – kitabınız.
- Kelishik qo'shimchalari ham deyarli bir xil: uyga – eve, uydən – evden.

Leksika bo'yicha:

- Juda ko'plab so'zlar o'xshash: ona – anne, o'g'il – oğul, tog' – dağ.
- Ba'zi so'zlar o'xshash bo'lsa-da, ma'nosi turlicha: araba (o'zbekchada arava, turkchada avtomobil).

Bu farqlar o'quvchilarga tushuntirilsa, noto'g'ri tushunishlar oldi olinadi.

Fonetika bo'yicha:

- O'zbek tilida mavjud bo'lmagan ü va ö unilari, shuningdek, yumshoq g' (ğ) tovushi turk tiliga xos.
- O'quvchilar bu tovushlarni o'z ona tilidagi yaqin tovushlar bilan qiyoslash orqali osonroq o'zlashtiradilar.

Amaliy mashg'ulotlarda:

- Qiyosiy jadval va misollar asosida mashqlar tuzish.
- Dialog va matnlarda o'xshash va farqli jihatlarni ajratish.

- Ona tilidagi bilimlarga tayangan holda yangi grammatik qoidalarni anglash.

Qiyosiy metodni turk tilini o'zbek auditoriyasiga o'rgatishda qo'llashning bir qator afzalliklari mavjud:

1. Tezroq o'zlashtirish imkoniyati. O'quvchilar o'zbek tilidan foydalanib turk tilini tushunishlari va tezroq o'rganishlari mumkin.

2. Xatolarni kamaytirish. Qiyosiy yondashuv orqali farqlar aniq ko'rsatiladi va noto'g'ri qo'llanishlarning oldi olinadi.

3. Motivatsiyani oshirish. O'quvchi ona tili bilan yaqinlikni sezganda, o'zida o'zlashtirishga ishonch hosil qiladi.

4. Madaniy yaqinlikni ta'kidlash. O'zbek va turk xalqlarining umumiy ildizlari til orqali ko'rsatilib, o'quvchilarda ijobiy qiziqish uyg'otadi.

5. Ta'lim samaradorligini oshirish. Qiyosiy metod asosida tayyorlangan darslar an'anaviy metodlarga qaraganda ko'proq natija beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, qiyosiy yondashuv turk tilini o'zbek auditoriyasiga o'rgatishda samarali va foydali metodlardan biridir. Tilshunoslikning qiyosiy tipologiyasi asosida qurilgan darslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va xatolarni kamaytiradi. Shuningdek, bu yondashuv o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Kelgusida turk tilini o'qitish jarayonida qiyosiy yondashuvni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, elektron resurslar va interaktiv dasturlar asosida qo'llash ta'lim samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев, М. Хорижий тил ўқитиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2019.
2. Қодирова, З. Чет тил ўқитишда қиёсий ёндашув. – Самарқанд: СамДУ, 2021.
3. Abdurahmonova, G. Turk va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi. // Tilshunoslik jurnali. – 2020. – №3. – B. 55–63.
4. Demircan, Ö. Yabancı Dil Öğretim Yöntemleri. – İstanbul: Der Yayınları, 1990.
5. Dörnyei, Z. Teaching and Researching Motivation. – London: Routledge, 2001.
6. Ganieva, D. O'zbek auditoriyasida turk tilini o'rgatish tajribalari. – Toshkent: TDPU, 2022.